

JST DOIRASIDA SUBSIDIYALARNI HUQUQIY TARTIBGA SOLISHNING AHAMIYATI: O‘ZBEKISTON MISOLIDA

Islombek Ne‘matillayev

Toshkent Davlat Yuridik Universiteti magistratura talabasi

Annotatsiya

Ushbu maqolada O'zbekistonning Jahon savdo tashkilotiga (JST) a'zo bo'lish jarayonida subsidiyalar tizimini moslashtirish masalasini o'rganadi. Maqolad JSTning Subsidiyalar va Kompensatsiya choralari to'g'risidagi bitimi talablari, O'zbekistonning amaldagi subsidiyalar tizimi va uni xalqaro talablarga moslashtirish yo'llari tahlil qilingan. JSTga a'zo bo'lish jarayonida O'zbekiston oldida turgan asosiy muammolardan biri - bu milliy subsidiyalar tizimini tashkilot talablariga muvofiqlashtirish ekanligi aniqlangan. Natijalarga ko'ra, O'zbekistonning 193-sonli prezident qarori va 2025-2027 yillar uchun rejalashtirilgan subsidiyalar tizimi JST talablariga to'liq mos kelmasligi mumkin. Xususan, reyting asosidagi subsidiyalar taqsimoti tizimi xalqaro savdo qoidalariga zid deb topilishi mumkinligi aniqlangan. Muammoning yechimi sifatida Janubiy Koreya va Yevropa Ittifoqi tajribasiga asoslangan holda, subsidiyalar tizimini vertikal tizimdan gorizontaal tizimga o'tkazish, innovatsion rivojlanish va "yashil" texnologiyalarga yo'naltirilgan subsidiyalarni ko'paytirish taklif etilgan. Tadqiqot natijalari O'zbekistonning JSTga a'zo bo'lish jarayonida subsidiyalar tizimini takomillashtirish bo'yicha amaliy tavsiyalar ishlab chiqishga xizmat qiladi.

Kalit soʻzlar: Jahon savdo tashkiloti (JST); subsidiyalar tizimi; xalqaro savdo; man qilingan subsidiyalar; amalga oshirilishi mumkin bo'lgan subsidiyalar; reyting tizimi; O'zbekiston; JST integratsiyasi; xalqaro savdo huquqi; iqtisodiy modernizatsiya.

Kirish

Subsidiyalar butun dunyo bo'ylab hukumatlar tomonidan muayyan tarmoqlarni qo'llab-quvvatlash va rag'batlantirish uchun ishlatiladigan asosiy iqtisodiy instrumentlardan biri. Subsidiyalar bir nechta shakilda bo'lishi mumkin misol qilib aytadigan bo'lsak moliyaviy yordam yoki soliq imtiyozlar ham subsidiyani bir shakli hisoblanadi va davlatlar bunday subsidiyalarni taqdim etish orqali mahalliy sanoatning raqobatbardosh bo'lishiga, innovatsiyalarni rag'batlantirishga va ish o'rinlarini himoya qilishga harakat qilishadi. Biroq, subsidiyalar ma'lum bir tarmoqlarni iqtisodiy o'sishini ta'minlasada boshqa tomondan erkin savdo prinsipiga zid keladi va adolatsiz raqobatni vujudga keltiradi. Xalqaro savdo-sotiq kontekstida, subsidiyalar boshqa davlatlarning manfaatlariga ham potensial zarar yetqazishi mumkin, ya'ni ularning

sanoatlari tashqi bozorda subsidiyalangan servislar yoki mahsulotlar sabab yuzaga kelgan adolatsiz raqobatdan zarar ko'rishlari mumkin. Shu sababli, mamlakatlar subsidiyalarni kelishuvlar, iqtisodiy ittifoqlar, xalqaro tashkilotlar va boshqalar yordamida tartibga solishga harakat qiladilar.

Jahon savdo tashkiloti (JST) xalqaro savdoni tartibga soluvchi eng yirik va nufuzli tashkilot hisoblanadi. Globallashuv jarayonining jadallashuvi va xalqaro savdo munosabatlarining murakkablashuvi sharoitida mazkur tashkilotning ahamiyati tobora ortib bormoqda. O'zbekiston 1994-yildan buyon JSTga a'zo bo'lish uchun harakat qilib kelmoqda va so'nggi yillarda bu yo'nalishda sezilarli yutuqlarga erishdi. Biroq, JSTga a'zo bo'lish jarayonida mamlakatimiz oldida turgan eng muhim masalalardan biri - bu milliy qonunchilikni, xususan subsidiyalar bo'yicha mavjud tartib-qoidalarni tashkilot talablariga moslashtirish hisoblanadi. Ushbu maqola ishida JSTning subsidiyalar bo'yicha talablari, O'zbekistonning mavjud qonunchilik tizimi va uni xalqaro standartlarga moslashtirish yo'llari tahlil qilinadi.

Jahon Savdo Tashkilotining Tarixi va Rivojlanishi

Irwin¹ ta'kidlaganidek, 1930-yillardagi "Buyuk Depressiya" davrida proteksionistik siyosat va savdo cheklovlarining salbiy oqibatlari xalqaro hamjamiyatni yangi savdo tizimini yaratishga undaydi. Bundan tashqari, o'sha paytda ikkita jahon urushini boshidan o'tqazgan mamlakatlar o'z iqtisodiyotlarini qayta tiklash va kelajakdagi savdo urushlarini oldini olish maqsadi kuchli xalqaro hamkorlikni rivojlantirishni istagani yanada oshiradi. Natijada, 1947-yilda 23 mamlakat Jenevada Tariflar va Savdo bo'yicha Umumiy Bitim (GATT)ni imzolaydi. GATTning maqsadi savdodagi to'siqlarni, masalan, import qilingan tovarlarga qo'yiladigan bojxona to'lovlarini kamaytirish va barcha a'zolar amal qilishi mumkin bo'lgan xalqaro savdo qoidalarini yaratish edi. Dastlab, GATT Xalqaro Savdo Tashkiloti (International Trade Organization) deb nomlangan yirikroq tashkilotning bir qismi bo'lishi mo'ljallangan va ITO Xalqaro Valyuta Jamg'armasi (International Monetary Fund) va Jahon bankiga o'xshash tashkilot sifatida taklif etilgan edi. Biroq, kelishmovchiliklar sababli, ITO hech qachon tashkil etilmaydi. Natijada, GATT global savdoni boshqaruvchi asosiy kelishuvga aylanadi va qariyb ellik yil davomida amal qiladi. Shu vaqt mobaynida GATT a'zolari savdo to'siqlarini yanada kamaytirish va yangi savdo masalalarini hal qilish uchun bir nechta savdo muzokaralari bosqichlarini o'tkazadilar. Har bir bosqich savdo qoidalarini yanada kengaytirib, ko'proq mahsulotlarni qamrab oladi va yangi qiyinchiliklarga yechim beradi².

¹ Irwin, D. A. (1995). The GATT in Historical Perspective. *The American Economic Review*, 85(2), 323–328.

<http://www.jstor.org/stable/2117941>

² Pauwelyn, J. (2005). The Transformation of World Trade. *Michigan Law Review*, 104(1), 1–65.

<http://www.jstor.org/stable/30044497>

1980-yillarga kelib, global savdo tobora murakkablashadi, sababi xizmat ko'rsatish sohalari (bank, telekommunikatsiya va transport) tez sur'atlar bilan rivojlanishni boshlaydi. Buni ustuga, intellektual mulkni (patentlar, mualliflik huquqlari va savdo belgilari) himoya qilish zarurati yuzaga keladi. GATT bu sohalarni to'liq qamrab olishga mos emas edi chunki kuchli nizolarni hal etish mexanizmiga ega emas edi. Bu 1986-yilda Urugvay davrasi (Uruguay Round) muzokaralarining boshlanishiga sabab bo'ladi; bu GATT a'zolari o'rtasidagi muhim muzokaralar to'plami bo'lib, 1994-yilgacha davom etadi. Urugvay davrasi muhim o'zgarishlarga olib keldi: u savdo qoidalarini xizmatlar va intellektual mulk sohasini qamrab oladigan darajada kengaytirdi hamda savdo nizolarini hal qilish uchun kuchliroq tizim yaratdi. Bu, shuningdek, tobora murakkablashib borayotgan global savdo tizimini boshqarishga qodir yangi tashkilotni tuzish harakatining boshlanishi bo'ldi. Ohiri, 1995-yilda Jahon Savdo Tashkiloti (JST) tashkil etiladi va GATT o'rnini egallaydi, va keng ko'lamli vakolatlariga ega xalqaro tashkilot sifatida faoliyat boshladi. GATTdan farqli o'laroq, JST doimiy tashkilotga aylandi va savdo qoidalarini turli sohalarda amalga oshirish vakolatiga ega bo'ladi. U tovarlar, xizmatlar va intellektual mulkni qamrab oluvchi kelishuvlarni, shuningdek, savdo nizolarini rasmiy va tuzilgan jarayon orqali hal qilishga imkon beruvchi kuchliroq nizolarni hal etish mexanizmini o'z ichiga oldi.

Jahon Savdo Tashkiloti va O'zbekistonning A'zolik Jarayoni

Xozirgi kunga kelib Jahon Savdo Tashkilotiga 164 ta davlat a'zo hisoblanadi va jahon yalpi ichki mahsulotining juda katta qisimini aniqroq qilib aytadigan bo'lsak 98% tashkil etadi³. O'zbekiston ushbu tashkilotga a'zo bo'lish uchun 1994 – yil ariza bergan bo'lsada muzokaralar 2005 – yilga kelib xorijdan investitsiya oqimi sekinlashib, O'zbekiston va xorijiy moliyaviy institutlar o'rtasida munosabat yomonlashgan so'ng to'xtab qoldi. 2016 – yilda Shavkat Mirziyoyev hukumatga kelganidan so'ng O'zbekiston yana dunyoga ochilishni va ulkan iqtisodiy modernizatsiya islohatlari boshlangandan keyingina yana JSTga a'zolik masalalari qayta ko'rib chiqilib, 2019 – yilda muzokaralar qayta tiklandi. Joriy yilning boshida, Shavkat Mirziyoyev O'zbekiston 2026-yilgacha Jahon savdo tashkilotiga a'zo bo'lishni rejalashtirayotganini ta'kidlagan edi⁴.

Agar O'zbekiston tashkilotga a'zo sifatida qabul qilinsa, global savdo «o'yin qoidalari»ga amal qilgan holda, bosqichma-bosqich proteksionizmdan voz kechishga majbur bo'ladi va bu o'z navbatida, bojxona tariflarining pasayishi orqali iste'molchilarga arzon va sifatli mahsulotlar va xizmatlardan foydalanish imkoniyatini beradi. Xomashyo narxining kamayishi natijasida mahalliy mahsulotlarning ham narxi

³ World Trade Organization. (n.d.). Accession in perspective. Retrieved from https://www.wto.org/english/thewto_e/acc_e/cbt_course_e/c1s1p1_e.htm

⁴ S., E. (2024). O'zbekiston 2026-Yilgacha JSTGA a'zo Bo'lmoqchi. Retrieved from <https://www.gazeta.uz/oz/2024/05/30/wto/>

tushadi, ularning xalqaro bozorda raqobatbardoshligi oshadi va logistika xarajatlari sezilarli darajada qisqaradi. Bundan tashqari, JSTga qo‘shilish investorlar uchun muhim signal hisoblanadi. Bu, mamlakatning islohotlarni amalga oshirayotganini va xalqaro miqyosda iqtisodiy ochiqqligini ko‘rsatadi. Shu sababli, JSTga a‘zo bo‘lish O‘zbekistonga ko‘proq to‘g‘ridan-to‘g‘ri xorijiy investitsiyalarni jalb qilish imkoniyatini oshiradi.

Jahon Banki taqdim etgan hisob kitoblarga ko‘ra O‘zbekistonning JSTga a‘zo bo‘lishi 5–7 yil ichida mamlakat iqtisodiyotining qo‘shimcha 17%ga o‘shishiga yordam beradi⁵. Iqtisodiy tadqiqotlar va islohotlar markazi direktori Obid Hakimov BMTning Nyu-Yorkdagi shtab-kvartirasida o‘tkazilgan brifingda JSTga a‘zolik O‘zbekiston aholi farovonligini 0,9–1,0% darajasida oshirish mumkinligi va 2017 – 2022 oralig‘ida JST standartlariga muvofaqlashtirilgan islohatlar sabab mamlakatning tovar va xizmatlar eksporti \$12,6 milliarddan \$19,3 milliardgacha o‘sganini, eksport qilinayotgan mahsulotlarning turi esa 1,5 mingdan 3 mingga kengayganligini va eksport geografiyasi ham 139 ta davlatdan 164 taga yetganini ta’kidlagan edi⁶. Bundan ko‘rinib turibiki, JSTga a‘zolik O‘zbekistonning xalqaro savdodagi mavqegini mustahkamlab, iqtisodiy o‘shish va aholi farovonligiga salmoqli hissa qo‘shishi aniq.

JSTning Subsidiyalar Bo‘yicha Talablari

Biroq tangani boshqa tomoniga qarasaq, O‘zbekiston JSTga a‘zo bo‘lishi uchun o‘z milliy qonunlari va iqtisodiy siyosatini JST standartlariga, ayniqsa subsidiyalar bo‘yicha talablariga moslashtirishi kerak. Jahon Savdo Tashkilotining (JST) Subsidiyalar va Kompensatsiya choralari to‘g‘risidagi bitimi har bir davlat tomonidan JSTga qo‘shilish jarayonida imzolanadigan asosiy hujjatlardan biri hisoblanadi. Bu bitimning maqsadi davlat tomonidan iqtisodiyotga moliyaviy ko‘mak berilishi natijasida xalqaro savdo jarayonida raqobatning buzilishi va savdodagi noqonuniy ustunlikning oldini olishdan iborat. Bitimga ko‘ra, subsidiyalar muayyan shartlar asosida uchga bo‘linadi: man qilingan subsidiyalar (prohibited subsidies), amalga oshirilishi mumkin bo‘lgan subsidiyalar (actionable subsidies) va amalga oshirilishi mumkin bo‘lmagan subsidiyalar (non-actionable subsidies)⁷.

Man qilingan subsidiyalar xalqaro savdo qoidalariga ko‘ra umuman qo‘llanishi mumkin bo‘lmagan, turli davlatlarga nisbatan noqonuniy ustunlik beruvchi yordam turlari sifatida belgilangan. Bu subsidiyalar asosan ikki turga bo‘linadi: eksportga bog‘langan subsidiyalar va ichki tovarlarga nisbatan importni ustun qo‘yadigan subsidiyalar. Eksportga bog‘langan subsidiyalar bu davlat tomonidan mahsulotning eksport qilinishini rag‘batlantirish maqsadida ajratilgan yordamlar. Bunday yordamlar

⁵ Azizbek Urunov: JSTga a‘zo Bo‘lish o‘zbekiston iqtisodiyotini 17%Ga Oshiradi. (2024). Retrieved from <https://uzreport.news/economy/azizbek-urunov-jstga-a-zo-bo-lish-o-zbekiston-iqtisodiyotini-17-ga-oshiradi>

⁶ O‘zbekistonning JSTGA a‘zo bo‘lishi iqtisodiyotning 0,5%ga o‘shishini ta‘minlaydi. (2023a). Retrieved from <https://www.spot.uz/oz/2023/12/06/wto-perspectives/>

⁷ Rahmonqulova, N. X., & Xodjayev, B. K. (2019). *Xalqora Iqtisodiy Huquq*. Toshkent Davlat Yuridik Universiteti.

aniq bir eksport hajmiga yoki miqdoriga bog‘langan bo‘lishi mumkin. Bu turdagi subsidiyalar mahalliy bozordagi mahsulotlarning raqobatbardoshligini buzadi va xalqaro bozorda noqonuniy ustunlik beradi. Ichki tovarlarga nisbatan importni ustun qo‘yadigan subsidiyalar esa davlat tomonidan qo‘llanadigan yordamlar ichki mahsulotlarni import tovarlariga nisbatan ustunlikka ega bo‘lishiga yordam berilishiga qo‘llaniladi. Masalan, davlat ichki bozorda faqat milliy mahsulotlarga qo‘llaniladigan soliq imtiyozlari yoki import tovarlariga nisbatan yuqori boj stavkalari ko‘rinishida bo‘lishi mumkin. Ushbu turdagi subsidiyalar JSTning asosiy qoidalariga zid kelgani uchun ular qat’iy man qilingan. JSTning Subsidiyalar va Kompensatsiya choralari to‘g‘risidagi bitimiga ko‘ra, a‘zo davlatlar bunday yordam turlarini taqiqlashlari va savdoni buzuvchi amaliyotlarni bartaraf etishlari talab qilinadi. Shuningdek, bu turdagi subsidiyalarning aniq namunasi sifatida eksportda qo‘llanadigan grantlar, importni cheklash maqsadida berilgan qarzlilar va shu kabi yordamlar kiritilishi mumkin⁸.

Amalga oshirilishi mumkin bo‘lgan subsidiyalar davlatlar tomonidan ijtimoiy-iqtisodiy maqsadlarda yoki muayyan tarmoqlarni qo‘llab-quvvatlash uchun qo‘llaniladi. Ammo bu subsidiyalar boshqa davlatlarga salbiy ta‘sir ko‘rsatsa yoki bozorni buzsagina, JST tomonidan ularga nisbatan choralar ko‘rilishi mumkin. Bu turdagi subsidiyalarga misol sifatida maqsadli tarmoqlarga yordam berish, maxsus dasturlar uchun ajratilgan mablag‘lar va hududiy rivojlanishni qo‘llab-quvvatlash kabi chora-tadbirlar kiritiladi. Amalga oshirilishi mumkin bo‘lgan subsidiyalar uchta asosiy turga ajratiladi:

- Tijorat zarariga olib keluvchi subsidiyalar (injury-causing subsidies): Bular mahalliy ishlab chiqaruvchilarga salbiy ta‘sir ko‘rsatuvchi yordam turlaridir. Agar davlat tomonidan ko‘rsatilgan subsidiyalar boshqa davlat ishlab chiqaruvchilariga zarar yetkazsa yoki ichki bozordagi raqobatni buzsa, ularga nisbatan JSTning maxsus nizolarni hal qilish mexanizmi orqali tadbirlar amalga oshirilishi mumkin.
- Manfaatlarni buzuvchi subsidiyalar (nullification or impairment of benefits): Agar subsidiyalar boshqa davlatlar uchun GATT 1994 (Savdo va Tariflar To‘g‘risidagi Bitim) bo‘yicha berilgan imtiyozlarni buzsa, ularning xalqaro savdo munosabatlariga ta‘siri ko‘rib chiqilishi mumkin. Masalan, agar bir davlatning subsidiyalari boshqa davlat eksportchilarining bozorda kirish imkoniyatini cheklasa, bu bitim qoidalariga zid hisoblanadi.
- Jiddiy zarar yetkazuvchi subsidiyalar (serious prejudice): Bunda davlat tomonidan ajratilgan yordamlar boshqa davlatlarning bozor ulushiga yoki ularning tovar narxlariga jiddiy ta‘sir ko‘rsatadi. Agar subsidiyalar bir

⁸ Verkuijl, C., van Asselt, H., Moerenhout, T., Casier, L., & Wooders, P. (2017). Disciplining Subsidies under the WTO. In *Tackling Fossil Fuel Subsidies through International Trade Agreements* (pp. 14–22). Climate Strategies. <http://www.jstor.org/stable/resrep16315.7>

davlatning bozor ulushini oshirsa yoki boshqa davlat ishlab chiqaruvchilarining bozordagi holatiga salbiy ta'sir ko'rsatsa, JST tomonidan subsidiyaga qarshi tadbirlar ko'rilishi mumkin. Bu jarayonda, JST a'zolari zarur hollarda qarshi chora-tadbirlar (countervailing measures), ya'ni kompensatsion bojlar orqali zararni qoplash imkoniyatiga ega bo'ladi⁹.

Amalga oshirilishi mumkin bo'lmagan subsidiyalar JST tomonidan bozorda raqobatni buzmaydigan yordam turlari sifatida tasdiqlangan va ularga nisbatan cheklovlar qo'llanilmaydi. Ushbu subsidiyalar davlat tomonidan ijtimoiy maqsadlarni amalga oshirish, atrof-muhitni muhofaza qilish yoki ta'lim va tadqiqot ishlarini qo'llab-quvvatlash maqsadida ajratiladi. Amalga oshirilishi mumkin bo'lmagan subsidiyalar quyidagi asosiy turlarga bo'linadi:

- Tadqiqot va rivojlantirishga yordam: Davlat tomonidan ilmiy tadqiqotlar va texnologik rivojlanishni qo'llab-quvvatlash uchun ajratilgan yordamlar. Bu turdagi subsidiyalar, agar ularning foydasi umumiy iqtisodiyot yoki aniq bir tarmoq uchun bo'lsa va davlat tomonidan umumiy foydani ko'zlab amalga oshirilsa, amalda cheklanmaydi.
- Ijtimoiy yordamlar: Davlat tomonidan iqtisodiy jihatdan qiyin ahvoldagi hududlarga yoki aholining ijtimoiy zaif qatlamlariga ko'rsatiladigan yordamlar. Bunday yordamlar, agar ularning maqsadi ijtimoiy qiyinchiliklarni yengish yoki aholining ijtimoiy qo'llab-quvvatlash bo'lsa, bozorda salbiy ta'sir ko'rsatmagan holda qo'llanilishi mumkin.
- Ekologiya va atrof-muhitni muhofaza qilishga yo'naltirilgan subsidiyalar: Agar davlat atrof-muhitga salbiy ta'sirlarni kamaytirish maqsadida yordam bersa va bu yordamning iqtisodiy ta'siri katta bo'lmasa, bu turdagi subsidiyalar ham cheklanmagan subsidiyalar hisoblanadi. Masalan, ekologik jihatdan toza texnologiyalarni joriy etish yoki qayta tiklanuvchi energiya manbalarini qo'llab-quvvatlash uchun beriladigan yordamlar amalda ruxsat etilgan subsidiyalar toifasiga kiradi⁷.

JSTning Subsidiyalar va Kompensatsiya choralari to'g'risidagi bitimi aniq belgilangan qoidalar va talablar davlatlarga subsidiyalarning ta'sirini hisobga olgan holda ularni adolatli va bozorda raqobatni buzmaganda qo'llashni ta'minlaydi. Bundan tashqari, bitimda subsidiyalarning ta'siri bo'yicha belgilangan spesifiklik talablari (specificity) va ularning xalqaro savdoga salbiy ta'sirini minimallashtirish maqsadida nizolarni hal qilish organlari orqali amalga oshiriladigan maxsus mexanizmlar mavjud⁹. Bu bitim davlatlar o'rtasidagi savdo munosabatlarini adolatli tarzda tartibga solishda muhim ahamiyatga ega bo'lib, iqtisodiy rivojlanish va xalqaro bozorda tenglikni ta'minlashga yordam beradi.

⁹ Hwang, H. (2018). Entrusted or Directed Subsidies in WTO Disputes. *Journal of International and Area Studies*, 25(2), 21–36. <https://www.jstor.org/stable/26909942>

O‘zbekistondagi Qonunlar

2024 – yilning iyun oyida “Bozor islohotlarini yanada jadallashtirish va O‘zbekiston milliy qonunchiligini Jahon savdo tashkiloti bitimlariga muvofiqlashtirish bo‘yicha navbatdagi chora-tadbirlar” to‘g‘risida O‘zbekiston respublikasi prezidentining 85-sonli farmoni imzolandi¹⁰. Ushbu farmonga ko‘ra eksportni qo‘llab-quvvatlash maqsadida taqdim etilayotgan subsidiyalar va preferensiyalar, samarasi past soliq va bojxona imtiyozlarini 2025-yil 1 – yanvardan boshlab bekor qilish, shuningdek, JST qoidalariga zid kelmaydigan qo‘llab-quvvatlash choralarini ko‘rish belgilangan. Bundan tashqari, ayrim tovarlarga aksiz solig‘ining birxillashtirilishi, temiryo‘l transporti orqali yuk tashish tariflarining tenglashtirilishi va monopoliyalarning qisqartirilishi ham rejalashtirilgan¹¹. Bu choralar, qishloq xo‘jaligi, energetika, telekommunikatsiya va boshqa iqtisodiy sohalarda raqobatni kuchaytirish hamda JST talablari asosida “barcha uchun teng sharoitlar” tamoyilini mustahkamlashga xizmat qiladi.

Ammo, masalining bir qiziq tomoni shundaki bu bilan O‘zbekiston subsidiyalardan yuz foiz voz kechdi degani emas. O‘zbekiston Iqtisodiyot va moliya vazirligi 2025–2027 yillar uchun Budgetnoma loyihasini e‘lon qildi¹². Loyihada 2024 yilgi budjet ijrosi tahlil qilinib, joriy yilda subsidiyalar uchun 28,9 trillion so‘m sarflanishi kutilayotgani qayd etilgan. Bu ko‘rsatkich davlat budjeti xarajatlarining 9,1 foizini tashkil qiladi. Ayniqsa, yil oxirigacha energetika sohasini qo‘llab-quvvatlash uchun umumiy hisobda 16,2 trillion so‘m ajratish rejalashtirilgan. 2025 yilda esa davlat budjetidan jami 28,3 trillion so‘m subsidiya ajratilishi ko‘zda tutilgan bo‘lib, bu summa ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish, transport-kommunikatsiya, eksportni rag‘batlantirish, qishloq xo‘jaligi va aholi bandligini ta‘minlash kabi sohalarni qo‘llab-quvvatlashga yo‘naltiriladi. Mazkur mablag‘ davlat budjeti daromadlarining 8,2 foiziga teng bo‘ladi¹³.

Bundan tashqari, “Tadbirkorlik sub‘yektlariga subsidiyalar, imtiyozlar va preferensiyalarni taqdim etish tartiblarini takomillashtirish bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi 193 - sonli prezident qaroriga alohida to‘htalib o‘tish zarur. Mazkur qonunning JSTga a‘zolik jarayonida muammoga aylanish ehtimoli ayrim imtiyozlarning “eksport bilan bog‘liq subsidiyalar” sifatida ko‘rilishi mumkinligi bilan bog‘liq. Masalan, tadbirkorlik subyektlari uchun belgilangan reyting asosida subsidiyalar va preferensiyalarni ajratish mexanizmi JST nazarida ichki bozordagi raqobatni saqlashga xizmat qilishi kerak, chunki reytinglar orqali qo‘llanadigan turli

¹⁰ H., S. (2024). “Barcha uchun teng sharoitlar”. Qonunchilikni JST bitimlariga muvofiqlashtirish to‘g‘risidagi farmon haqida asosiy ma‘lumotlar. Retrieved from <https://www.gazeta.uz/oz/2024/06/04/wto/>

¹¹ O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni, 03.06.2024 yildagi PF-85-son

¹² Kun.uz. (2024). 2025 yilda qaysi yo‘nalishga Qancha Subsidiya Ajratiladi? Retrieved from <https://kun.uz/43647905>

¹³ O‘zbekiston Respublika Iqtisodiyot va Moliya vazirligi. (2024.). *Budjetnoma 2025-2027*.

darajadagi qo‘llab-quvvatlash choralari JSTning spesifiklik (specifity) talablariga rioya qilmasligi mumkin. Bu esa JST a‘zolari tomonidan savdo diskriminatsiyasi sifatida baholanishi va muammolarni keltirib chiqarishi mumkin. Masalan, ushbu qarorda yuqori reytingga ega tadbirkorlik subyektlari — “AAA” yoki “AA” reytingi — 100% yoki 90% miqdorda subsidiyalar va imtiyozlarga ega bo‘ladilar¹⁴. Bunday reyting asosidagi qo‘llab-quvvatlash choralarning JST talablari nuqtayi nazaridan muammoli jihati shundaki, ular aniq subyektlarga yoki sohalarga nisbatan spesifiklik ko‘rsatadi. Subsidiyalar va Kompensatsiya choralari to‘g‘risidagi bitimi bo‘yicha subsidiyalarning spesifikligi xalqaro savdo uchun zararli deb topilgan holatlarda cheklanishi kerak. Bunday reyting tizimi, ayrim davlatlar tomonidan JST doirasida savdo diskriminatsiyasi sifatida ko‘rilishi mumkin, chunki u yuqori reytingga ega tadbirkorlik subyektlariga ichki bozorda boshqa tadbirkorlarga nisbatan ustunlik beradi. Masalan, xalqaro savdoda qatnashuvchi boshqa JST a‘zolari O‘zbekistonning bunday reyting asosida subsidiyalar taqdim etishini ichki raqobatni buzuvchi chora sifatida baholashlari va O‘zbekistonning eksport qiluvchi subyektlariga bevosita yoki bilvosita qo‘llab-quvvatlash berilayotganini da’vo qilishlari mumkin.

JST Talablariga Moslashish

O‘zbekiston JSTning Subsidiyalar va Kompensatsiya choralari to‘g‘risidagi bitimi talablariga to‘liq javob beradigan qonunchilikni shakllantirish uchun ayrim chora-tadbirlarni ko‘rishi lozim. Birinchida navbatda 193 - sonli prezident qaroriga belgilangan reyting asosidagi subsidiyalarni taqsimlash tizimini qayta ko‘rib chiqish lozim sababi yuqorida aytib o‘tilganidek reyting asosidagi subsidiyalar O‘zbekistonning ichki raqobatini qo‘llab-quvvatlashiga qaratilgan bo‘lsa-da, JST tomonidan diskriminatsion deb baholanib, xalqaro savdo qoidalariga zid deb topilishi mumkin. Bu borada Janubiy Koreya tajribasi alohida e‘tiborga loyiq - ular JSTga a‘zo bo‘lish jarayonida "Industrial Development Act" va "Framework Act on Science and Technology" qonunlarini qabul qilib, subsidiyalarni vertikal (ma‘lum korxonalariga yo‘naltirilgan) tizimdan gorizontal (barcha uchun ochiq bo‘lgan) tizimga o‘tkazgan. Natijada, Janubiy Koreya 2000-2020 yillar oralig‘ida innovatsion rivojlanishga yo‘naltirilgan subsidiyalar orqali YaIM o‘shishini 2.5 barobarga oshirishga erishgan¹⁵. O‘zbekistonning 2025-yil uchun rejalashtirilgan 28,3 trillion so‘mlik subsidiyalar tizimini qayta ko‘rib chiqishda Yevropa Ittifoqining "State Aid Modernization" (SAM) dasturi tajribasi muhim ahamiyatga ega. YeI bu dastur orqali subsidiyalarni uch asosiy yo‘nalishga qaratgan: 1) innovatsion rivojlanish va tadqiqotlar (umumiy subsidiyalarning 35%), 2) ekologik modernizatsiya va "yashil" texnologiyalar (30%), 3) kadrlar salohiyatini oshirish (25%). Qolgan 10% esa mintaqaviy rivojlanishga

¹⁴ O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining qarori, 24.05.2024 yildagi PQ-193-son

¹⁵ Yi, S. (2020). Evaluation and development of Korea’s national plan for resource circulation towards a circular economy. *Energy & Environment*, 31(7), 1129–1146. <https://www.jstor.org/stable/26960852>

yo'naltirilgan. Bu tizim JST talablariga to'liq javob berishi bilan birga, 2015-2023 yillarda YeIning raqobatbardoshligini 23%ga oshirishga xizmat qilgan¹⁶.

Shuningdek, O'zbekiston subsidiyalarning savdo ta'sirini doimiy monitoring qilib borish uchun shaffof tizim yaratishi lozim. O'zbekistonda rejalashtirilayotgan "subsidiya.mf.uz" platformasi ham subsidiya jarayonining shaffofligini ta'minlashga yordam beradi va JST talablariga moslashishni osonlashtiradi. Ushbu qonunchilik islohotlari va rivojlangan davlatlarning tajribasiga asoslangan amaliyotlar orqali O'zbekiston JST talablariga mos subsidiyalar tizimini shakllantirishi va xalqaro bozorda adolatli raqobat tamoyillariga rioya qilishi mumkin.

Xulosa

O'zbekistonning JSTga a'zo bo'lishi mamlakatimiz uchun muhim strategik qadam hisoblanadi. Bu jarayonda subsidiyalar tizimini xalqaro talablarga moslashtirish eng murakkab vazifalardan biri bo'lib, bu borada puxta o'ylangan va bosqichma-bosqich amalga oshiriladigan yondashuv talab etiladi. Rivojlangan davlatlar, xususan Janubiy Koreya va Yevropa Ittifoqi tajribasi shuni ko'rsatadiki, subsidiyalar tizimini JST talablariga moslashtirish nafaqat majburiy talab, balki mamlakatning raqobatbardoshligini oshirish va innovatsion rivojlanishini ta'minlash uchun imkoniyat hamdir. O'zbekiston hukumati tomonidan qabul qilinayotgan yangi qonunlar va islohotlar, jumladan subsidiyalarni shaffof va samarali taqsimlash mexanizmlarini joriy etish bo'yicha chora-tadbirlar mamlakatimizning JSTga muvaffaqiyatli integratsiyalashuviga zamin yaratmoqda. Biroq, bu jarayonda milliy manfaatlar va xalqaro majburiyatlar o'rtasidagi muvozanatni saqlash, shuningdek, mahalliy ishlab chiqaruvchilarni qo'llab-quvvatlashning yangi, JST talablariga mos keluvchi mexanizmlarini ishlab chiqish muhim ahamiyat kasb etadi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Irwin, D. A. (1995). The GATT in Historical Perspective. *The American Economic Review*, 85(2), 323–328. <http://www.jstor.org/stable/2117941>
2. Pauwelyn, J. (2005). The Transformation of World Trade. *Michigan Law Review*, 104(1), 1–65. <http://www.jstor.org/stable/30044497>
3. World Trade Organization. (n.d.). Accession in perspective. Retrieved from https://www.wto.org/english/thewto_e/acc_e/cbt_course_e/cls1p1_e.htm
4. S., E. (2024). O'zbekiston 2026-Yilgacha JSTGA a'zo Bo'lmoqchi. Retrieved from <https://www.gazeta.uz/oz/2024/05/30/wto/>
5. Azizbek Urunov: JSTga a'zo Bo'lish o'zbekiston iqtisodiyotini 17%Ga Oshiradi. (2024). Retrieved from <https://uzreport.news/economy/azizbek-urunov-jstga-a-zo-bo-lish-o-zbekiston-iqtisodiyotini-17-ga-oshiradi>

¹⁶ Juan Jorge Piernas López, 'The transformation of EU State aid law ... and its discontents', (2023), 60, *Common Market Law Review*, Issue 6, pp. 1623-1654, <https://kluwerlawonline.com/journalarticle/Common+Market+Law+Review/60.1/COLA2023118>

6. O'zbekistonning JSTGA a'zo bo'lishi iqtisodiyotning 0,5%ga o'sishini ta'minlaydi. (2023a). Retrieved from <https://www.spot.uz/oz/2023/12/06/wto-perspectives/>
7. Rahmonqulova, N. X., & Xodjayev, B. K. (2019). *Xalqora Iqtisodiy Huquq*. Toshkent Davlat Yuridik Universiteti
8. Verkuyl, C., van Asselt, H., Moerenhout, T., Casier, L., & Wooders, P. (2017). Disciplining Subsidies under the WTO. In *Tackling Fossil Fuel Subsidies through International Trade Agreements* (pp. 14–22). Climate Strategies. <http://www.jstor.org/stable/resrep16315.7>
9. Hwang, H. (2018). Entrusted or Directed Subsidies in WTO Disputes. *Journal of International and Area Studies*, 25(2), 21–36. <https://www.jstor.org/stable/26909942>
10. H., S. (2024). "Barcha uchun teng sharoitlar". Qonunchilikni JST bitimlariga muvofiqlashtirish to'g'risidagi farmon haqida asosiy ma'lumotlar. Retrieved from <https://www.gazeta.uz/oz/2024/06/04/wto/>
11. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni, 03.06.2024 yildagi PF-85-son
12. Kun.uz. (2024). 2025 yilda qaysi yo'nalishga Qancha Subsidiya Ajratiladi? Retrieved from <https://kun.uz/43647905>
13. O'zbekiston Respublika Iqtisodiyot va Moliya vazirligi. (2024.). *Budjetnoma 2025-2027*.
14. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining qarori, 24.05.2024 yildagi PQ-193-son
15. Yi, S. (2020). Evaluation and development of Korea's national plan for resource circulation towards a circular economy. *Energy & Environment*, 31(7), 1129–1146. <https://www.jstor.org/stable/26960852>
16. Juan Jorge Piernas López, 'The transformation of EU State aid law ... and its discontents', (2023), 60, *Common Market Law Review*, Issue 6, pp. 1623-1654, <https://kluwerlawonline.com/journalarticle/Common+Market+Law+Review/60.1/COLA2023118>